

YOSHLARNING ESTETIK DUNYO QARASHINI SHAKLLANISHIDA RANGTASVIR SAN’ATINING TUTGAN O‘RNI

Sh. B. Oydinov

Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchi

sh.oydinov1972@mail.ru

Annotatsiya. *Taqdim etilayotgan ilmiy maqola Vatanimiz hududidagi rangtasvir san’ati namunalari haqida bo‘lib, ulardan ba’zilari badiiy tahlil etilgan. Rassomlarning his-tuyg‘u va fikrlari, rang-barang ijod olami tasviriy san’atdagi ro‘y bergan o‘zgarishlar hamda rangtasvir san’atini estetik jihatdan ta’lim va tarbiyada tutgan o‘rni haqidagi fikr va mulohazalar ilmiy bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha, devoriy suratlar, rangtasvir san’ati, miniatyura, natyurmort, manzara, estetik, ta’lim va tarbiya, go‘zallik.*

Аннотация: *Представленная научная статья посвящена примерам живописи на территории нашей страны, некоторые из которых художественно проанализированы. Он выражает чувства и мысли художников, изменения, произошедшие в мире красочного искусства, и роль живописи в эстетическом образовании и воспитании.*

Ключевые слова: *Афросиаб, Болаликтепа, Варахша, фрески, живопись, миниатюра, натюрморт, пейзаж, эстетика, образование и воспитание, красота.*

Abstract: *The presented scientific article is devoted to examples of painting on the territory of our country, some of which are artistically analyzed. It expresses the feelings and thoughts of artists, the changes that have taken place in the world of colorful art, and the role of painting in aesthetic education and upbringing.*

Keywords: *Afrosiab, Bolaliktepa, Varakhsha, frescoes, painting, miniature, still life, landscape, aesthetics, education and upbringing, beauty.*

Yurtimizda bo‘layotgan taraqqiyot jarayoni ilm-fan va madaniyatning barcha sohalarida bo‘lgani kabi tasviriy san’at sohasini ham chetlab o‘tgani yo‘q. Tasviriy san’at eng qadimiy va keng tarqalgan san’at turlaridan biridir. Tasviriy san’at asarlari qaysi tur va janrda yaratilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, ular kishilarning his tuyg‘usiga, ruhiyatiga ijobiy ta’sir etadi. Ma’naviy go‘zallik, ezgulik, estetik did hadiya etadi. Tasviriy san’at voqelik va borliqni shakllar, chiziq, rangli bo‘yoqlar orqali ma’lum bir tekslikda, yuzada va hokazolarda haykaltarosh yoki rassomlar tamonidan tasvirlanadigan san’atdir.

Tasviriy san’at ibtidoiy jamoa davridan boshlab rivojlanganligi ma’lum. Bu davrdan inson tafakkuri kamol topgan sari go’zallik hissi rivojlanib bordi. Keyinchalik turli xil shakl va tasvirlar orqali yozuv paydo bo’la boshladi. Qadimdan kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni tayyorlash zarurati va keyinchalik shu buyumlarni bezash orqali tasviriy san’at asta-sekin rivojlandi. Tasviriy san’atning qadimgi turli namunalari orqali insoniyat tarixini, e’tiqodlarini, estetik dunyoqarashini, turmush tarzini o’rganishimiz mumkin bo’ladi.

Tasviriy san’at turlari ichida rangtasvirni o’ziga xos tamonlari bor. Rangtasvir haqida fikr yuritar ekanmiz, uning rangli bo’yoqlar vositasida qog’ozga, matoga, devorga xullas tekisliklar yuzasiga ishlanadigan san’at deb bilamiz. Rangtasvir asarlari mazmunini ochib berishda ranglar muhim rol o’ynaydi. Rangtasvir san’ati tarixi ibtidoiy odamning g’or devorlariga chizgan rasmlaridan boshlanadi. O’zbekiston hududida ham qadimdan ajdodlarimiz tamonidan yaratilgan rangtasvir namunalari kishilarni necha asrlardan beri o’ziga rom qilib kelmoqda. Bulardan eng qadimiylari ibtidoiy Zaravutsoy, Sarmishsoy kabi tasvirlar hisoblanadi. Bu tasvirlarda ov manzarasidagi turli rasmlarni ko’ramiz. Bular qadimgi odamlarning hayotini, turmush tarzini tasavvur qilishga yordam beradi. Rangtasvir san’atidagi yutuqlarni kulolchilik namunalari, bo’laklarida, tuproq ostida saqlanib qolgan binolarning devorlariga ishlangan suratlarda batafsilroq ko’rish mumkin. Samarqandning qadimiy o’rni Afrosiyobdagi devoriy rasmlar, Buxorodagi Varaxsha, Surxondaryoda joylashgan Termiz yaqinidagi Bolaliktepa tasviriy san’at namunalari bunga misol bo’la oladi.

Afrosiyob nomi bilan yuritilayotgan qadimgi devoriy rasmlarda rangtasvir san’atining rang-barang va nafis namunalari mavjud. Rasmdagi tasvirlarda sharq xalqlariga xos ko’rinishlar ifodalangan. Bu suratlarini kuzatar ekanmiz, rassom devoriy rasmda keng manzarani qamrab olishga intilganini ilg’aymiz. Bu devoriy suratlar chizilgan xona mehmonxona ekanligi ma’lum. Rahim Hasanov “Tasviriy san’at asoslari” qo’llanmasida: ...“Mehmonxonaning to’rt tamoniga turli devoriy rasmlar ishlangan. Mehmonxona devorlaridagi rasmlardan birida bir erkak va ayol suhbatlashib o’tirgani aks ettirilgan. Umuman, mehmonxonaning devorlarida to’y safari, daryoda cho’milish, elchilarni qabul qilish marosimi, ov kabilar aks ettirilgan. To’y safari aks etgan rasmda oq rangdagi filda malika, saman ot mingan shoh-kiyov aks etgan. Shuningdek malikani kuzatib ketayotgan kanizaklar ham tasvirlangan”... [1]deb yozadi. Teparoqda joylashgan manzarada oq qushlar tasviri esa devoriy suratga yanada badiiy mazmun kiritgan. Tasvirda oq qushlarning harakati bir-biriga uyg’unlashib ketganki, bu manzarada o’ziga xos musiqiy ohang jaranglab turgandek tuyuladi. Kompozitsiyaning rangga boy qilib tasvirlanganligidan Afrosiyob tasviriy san’ati nihoyat darajada badiiy yutuqlarga boy ekanligini ko’ramiz. Devoriy suratlarining juda ko’p qismi turli sabablarga ko’ra o’chib ketgan. Tasvirlardagi turli qush va

hayvonlar tasviri anatomik tuzilishiga mos aks ettirilgan. Bu esa musavvir mahoratidan darak beradi. Afrosiyob devoriy rasmlari nafaqat tasviriy san’atimiz merosini, balki butun sharq xalqlari tarixini o‘rganishda ham juda katta ahamiyatga ega.

Termiz yaqinidagi Bolaliktepa yodgorligidan topilgan bino devorlarining to‘rtala tomoni ham turli ko‘rinishdagi rangdor tasvirlar bilan to‘ldirilgan. Bolaliktepa rangtasvir san’atida odamlarning kayfiyati, o‘zaro munosabatlari, xarakterlari rassomlar tomonidan o‘ta ustalik bilan tasvirlangan. Umuman bu tasvirlardagi obrazlarning xatti-harakati, qiyofalaridagi ko‘rinishlar qandaydir to‘y yoki bayramona marosimni aks ettirilganidan dalolat beradi.

Buxoroning qadimgi madaniy markazlaridan biri – Varaxshadan ham devorlari suratlar bilan bezatilgan hashamatli saroy qoldiqlari topilgan. Bu me’morchilik obidasi va undagi san’at namunalari sharq xalqlariga xos madaniy aloqalar qay darajada bo‘lganligini o‘rganish imkoniyatini ham ko‘rsatib beradi. Umuman, tasvirlar rang-barang manzaralar bilan boyitilgan va ma’lum bir go‘zallikni o‘zida mujassamlashtirgan. Devoriy suratlardagi tabiat manzaralari turli daraxtlar ko‘rinishlari bilan uyg‘unlashib o‘zgacha ma’no kasb etgan.

Umuman o‘tmish tasviriy san’ati, me’morchilik san’atining ajralmas qismi bo‘lib kelganligi ma’lum. Nozik va nafis, rang – barang devoriy suratlar, haykaltaroshlik namunalari me’morchilik san’atini boyitibgina qolmasdan, u bino va xonalarni nima uchun, kim uchun xizmat qilganini ham har tomonlama aniqlashda yordam beradi. Qadimgi musavvirlar o‘z hunarlarini tugal egallagan mohir san’atkor ekanliklarini ular yaratgan tasvirlarning me’yoriga yetkazib ishlaganligidan, obrazlar xarakterlarini to‘laqonligidan yaqqol sezish mumkin. Qadimgi rassomlarning barcha tuyg‘u va fikrlari, shuningdek, rang-barang ijod olami va mo‘yqalamining sehrliligi tasvirlari, to‘la – to‘kis bizgacha saqlanib qolmagan.

Vatanimiz hududiga Islom dinini kirib kelishi bilan tasviriy san’atda o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y beradi. Yozma manbalarning yoritilishi bo‘yicha bir qancha vaqt rassomlar asarlarida jonli mavjudotlarni tasvirlashda cheklanishlar ro‘y beradi. Islom dini va tasviriy san’at haqida fikr yurutib, falsafa fanlari nomzodi dotsent N. Oydinov o‘zining “Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari” monografiyasida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi ...“islom dini va muqaddas Qur‘on kitobi tasviriy san’at asarlarini mutlaqo taqiqlagan degan fikrlarga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Tarixdan ma’lumki, islom dini ta’limotini to‘la-to‘kis bilmagan ayrim shariat peshvolari xatti-harakatlari tufayli tasviriy san’atga nisbatan keskin fikrlar, hatto vahshiyliklar yuzaga kelgan. Yana shuni aytish kerakki, islom dinining keng tarqalishini ta’minlash uchun butlar, sanamlarni, xudo tasvirlarini keskin chegaralash ham zarur bo‘lgan”... [2]. Shu sababli bu davrda asosan turli tasvirlar o‘rniga amaliy san’at keng rivojlanganligi, me’morchilik amaliy bezak san’ati orqali, rangli naqshlar orqali bezatilishi

nihoyat darajada rivojlangani kuzatiladi. Professor Saidaxbor Bulatov “O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati” kitobida: ...“ IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib rivojlandi. Me‘morchilikda g‘isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yo‘g‘och o‘ymakorligini qo‘llash yuksak darajada rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi”... [3]. deb takidlaydi.

XI-XII asrlarda tasviriy va amaliy san’at bir-biri bilan o‘zaro uyg‘unlashgan holda rivojlangani ma’lum. San’atkorlar ijodida turli geometrik shakllardan tashqari, o‘simliklar, hayvon va qushlar tasviri bo‘lgan naqshlardan foydalanilgan. O‘sha davr hukmdorlari va boy zadogonlarining qasr va uylari, mehmonxonalar devorlari suratlar bilan bezatilganligi haqida ma’lumotlar saqlanib qolgan. Bu suratlarda jang, ov manzaralari, qabul marosimlari va bazmlar tavirlangan. O‘rta Osiyoga Chingizxonni bosqinchilik yurishi Vatanimiz hududida gullab yashnab turgan san’at va madaniyatini vayron qiladi. Uning ijodkorlarini esa qirib yuboriladi.

Sohibqiron Amir Temur davriga kelib ilm fan, san’at va madaniyat yuqori darajada taraqqiy etganligi ma’lum. O‘z davrida Amir Temur Samarqandni yirik madaniyat markaziga aylatirgan. Bu yerda ko‘plab bog‘lar yaratilgan. Ayrim qasrlarning devorlari turli tasviriy san’at asarlari bilan bezatilganligi haqida fikrlar mavjud. Umuman, bu tarixiy tasviriy san’at asarlarining asosiy qismi bizgacha deyarli saqlanib qolmagan bo‘lsada, ushbu davr tasviriy san’at namunalari ma’lum va mashhurligi ko‘pchilikka sir emas.

XIV – XV asrlarga kelib qo‘lyozma kitoblarning qayta ko‘chirilishi natijasida ko‘plab tasviriy san’at namunalari yuzaga keladi va ular kitobat san’atini yanada boyitadi. Bu asrlarda asosan shoh, saroylaridagi hayotiy voqealar tasvirlab beriladi. Amir Temur davrida ijod etgan tasviriy san’at ustalaridan mashhur ustod Gung yozma manbalardagi taxminlarga qaraganda monuviylik tariqati vakillaridan ta’lim olgan bo‘lishi mumkin degan fikrlar mavjud. Temuriylar davri nafis tasviriy san’ati haqida o‘zlarining “Minyatyura tarixidan lavhalar” kitobida N. Norqulov, I. Nizomiddinovlar shunday yozadilar. ...“Devorga surat chizish san’ati Mirzo Ulug‘bek zamonida yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarildi” ... [4]. Temur faoliyatidan so‘ng esa Samarqandda Mirzo Ulug‘bek davrida tasviriy san’at yanada rivojlanganligi ma’lum. Temuriylar zamonasida sharqona miniatyura san’atini bir qancha maktablari va uning buyuk ijodkorlari yuzaga keldi. Natijada Temuriylar davrda shakllangan nafis tasviriy san’atning dovrug‘i jahonga yoyiladi.

Hirotda o‘z davrida shakllangan «Nigoriston» maktabi jahon tasviriy san’ati maktablari ichida oldingi saflarda turadi. Aynan shu maktabda Kamoliddin Behzod buyuk musavvir sifatida kamolga etgan. Kamoliddin Behzod sharq allomalari Sharafiddin

Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy kabi mutafakkirlarning asarlarini tasvirlar orqali yanada jonlantrib targ‘ib etadi. Kamoliddin Behzod ishlagan tasviriy san‘at asarlari orasida Abdurahmon Jomiy, Husayin Boyqoro, Alisher Navoiy va Shayboniyxon suratlarini ham uchratish mumkin. Kamoliddin Behzod ijodining olamshumulligi shundaki, u o‘chmas maktab yarata oldi. Uning ijodidan ilhomlangan Qosim Ali, Sulton Muhammad, Muzafar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi ko‘pgina musavvirlar miniatyura san‘ati va kitobat san‘ati ravnaqi uchun xizmat qildilar. O‘zbek she‘riyatining sultoni Alisher Navoiy obrazini Kamoliddin Behzoddan tashqari Maxmud Muzahhib ham rangtasvirda yaratgan. Miniatyura san‘ati ustasi Maxmud Muzahhib asli Hirotda Kamoliddin Behzod qo‘lida ta‘lim olgan. Musavvir Alisher Navoiyni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va Kamoliddin Behzod ustozligidagi nafis san‘at maktabini o‘tagani ma‘lum. Maskur portret Navoiy zamonasidan bir oz keyin yaratilgan bo‘lsada yuqoridagi fikrlar uning haqiqatga yaqinligini aynan ta‘kidlab turibdi. Mashhur portretida kekxa va nuroniy chehrasidan iliq tabassum balqib turgan buyuk bobomiz Alisher Navoiyga xos o‘ta zukkolik hamda donolik yaqqol ko‘rinib turubdi.

Keyingi davrlarda me‘morchilik bilan bog‘liq ravishda tasviriy va amaliy san‘at uyg‘unlashib jonli mavjudotlar ishtrokida mahobatli devoriy rangtasvir asarlari yaratiladi. ... “ayniqsa, 1619-1635 yillarda qurilgan Samarqanddagi Sherdor madrasasi peshtoqiga ishlangan tasvirlar katta e‘tiborga egadir. Bu bino peshtoqining naqshinkor kompozitsiyasi bilan uyg‘un tasvirlangan oftob fonida ohuga tashlanayotgan sherning surati jozibali bir ko‘rinishda aks ettirilgan. Sher va ohuning tasviri chiroyli shakl, aniq, mazmun va ko‘rinishga ega bo‘lib qolmasdan, tabiat olamining siru asrorlarini eslatayotgan ramziy belgiga ham o‘xshab ketadi.

...Bu davrga kelib me‘morlik san‘atida bezakka yana e‘tibor orta boshladi. Buxoroda katta qurilishlar davom etdi. Shunday yodgorliklardan biri 1652-yili barpo etilgan Abdulazizxon madrasasi hisoblanadi. Nisbatlari nihoyatda go‘zal, oltin halli koshinlari yozuv, naqsh va rasmlar uyg‘unligida ajoyib manzara hosil qiladi. Madrasaning tashqi peshtoq bezagi naqsh va afsonaviy jonivorlar tasviri bilan bezatilgan” ... [5]. Mustaqillikga erishganimizning dastlabki yillaridanoq respublikamizning barcha hududlarida katta qurilish, bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda ham faxrlanishga arziydigan zamon talablariga mos turar joy binolari, davr ruhiyatiga mos bozor va mehmonxona kabilar me‘morlikning so‘nggi andozalari asosida qad ko‘tarmoqda. Qadimiy me‘morchilik yodgorliklari ta‘mirlanib, qayta milliy ruh bilan tiklandi. Ayrim me‘morchilik obidalari o‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati bilan nihoyatda boy qilib bezatilmoqda. Imom al Buxoriy kabi butun umrini iymon va e‘tiqod, ilm ma‘rifat, diyonat yo‘lida baxshida etgan ulug‘ zotlar xotiralarini e‘zozlash, ular

nomlari bilan bog‘liq joylarni obodonlashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu kabi bunyodkorlik ishlari bugungi kunda ham davom etmoqda. Yetuk mo‘qalamsohiblari, amaliy san‘at ustalari va me‘morlarning boy tajribasi, badiiy mahorati, tinimsiz mehnati evaziga san‘at o‘tmish an‘analari va zamon talablari asosida taraqqiy topib kelmoqda

Mahobatli rangtavir san‘ati vatanimiz o‘tmishida nihoyatda taraqqiy etganligini Samarqandning qadimiy o‘rni Afrosiyobdagi devoriy rasmlar, Buxorodagi Varaxsha, Surxondaryoda joylashgan Termiz yaqinidagi Bolaliktepa kabi bir qancha tasviriy san‘at namunalari orqali yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda **mahobatli rangtavir san‘atining** mohir ustasi O‘zbekiston xalq rassomi, Chingiz Ahmarov ijodini eslab o‘tish o‘rinlidir. Rassom yoshlik yillaridanoq O‘zbekistonning tarixiy me‘morchilik obidalariga mahliyo bo‘lib ulardagi amaliy san‘at sirlariga qiziqadi. Hamda o‘zbek milliy adabiyotiga, she‘riyatiga bo‘lgan qiziqishi tufayli sharqona asarlar yaratishga intiladi. Jumladan buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarini rangli bo‘yoqlar orqali yanada jonlantrishga harakat qiladi. 1945 yilda yaratilgan “Shirin portreti”da o‘zbek ayollariga xos go‘zallik, iffatlilik va o‘ta nazokatli xususiyatlarni rangli bo‘yoqlar orqali tasvirlashga muvaffaq bo‘ladi. Chingiz Ahmarov butun hayoti davomida samarali mehnat qilib ko‘plab go‘zal asarlar yaratish bilan bir qatorda, ajoyib rassom va shogirdlariga ustozlik qildi. Ular orasida Temur Sadullayev, To‘xtabek Sobirov, Sobir Jumamurodovlarni alohida aytib o‘tish o‘rinlidir.

Ajoyib mo‘yqalamsohiblaridan yana biri mustaqillik yillarida dastgoh rangtasvirda ijod qilgan, istedodli mo‘yqalam sohibi, ustoz pedagog professor G‘ofir Abduraxmonovdir. U kishi tasviriy san‘atining ko‘pgina janrlariga dadil murojat qila olgan. Rassom ayniqsa mavzuli kompozitsiyalar ishlab manzara, natyurmort, portret janrlarida samarali ijod qilgan. Rassom ijodining ajralmas va o‘ziga xos tamonlaridan biri natyurmort janri bo‘lib, o‘z natyurmortlarida ona tabiat sahovatini mahorat bilan tasvirlab beradi. G‘ofir Abduraxmonovning asarlarini kuzatsangiz tasvirlardagi go‘zal ko‘rinishlar nozik chizgilar, rassomning naqadar nafis didli ekanligidan dalolatdir. Sharqimizning chiroyli tabiati, sof havosi, yeri, sarviqor tog‘lari, ser meva bo‘g‘lari, o‘simligi, hayvonot dunyosi, qo‘yinki barcha-barchasini rassom asarlarida ustalik bilan ifodalangan. Rassomning asarlaridan “Baqqol” deb nomlangan natyurmort asarini badiiy tahlil qilinsa quyidagicha ta‘riflash mumkin. “Baqqol” asarini tomosha qilar ekansiz be ixtiyor turli hayollar olamiga chumasiz. Tasvirda aks etgan buyumlarni birma – bir ko‘zdan kechirar ekansiz, qandaydir ko‘nglingizda mayin iliqlik sezasiz. Qalban yuzingizga tabbasum yugurganday bo‘ladi. Asar sizni huddi o‘zi bilan so‘zlashishga chorlayotgandek tuyiladi. Kompozitsiya jihatidan murakkab tuzilgan bu natyurmortda uy ro‘zg‘or buyumlari, mevalar, rangli matolar ranglar jilvasi orqali jonli ifodalangan. Natyurmortning orqa ko‘rinishida milliy mis ko‘za, uning yuqori qismida qovun hamda kartinaning chap tomonini o‘rta qismida yana bir qovun tasvirlari joylashgan. Bu

uchala predmetni rassom shunday joylashtirganki, natyurmort tuzish va kompozitsiya qoidalaridan mohirona foydalanilgani yaqqol ko‘rinib turibdi. Tasvirning oldi qismida tarozi va uning toshlari joylashishi, natyurmort mazmunni ochib berishga hizmat qiladi. Shuningdek, natyurmortda sopol idishga solingan turli xil mevalar hamda uy ro‘zg‘or buyumlari tasvirlangan. O‘tmishimizni eslatuvchi jundan to‘qilgan milliy gilam ham o‘z o‘rnida joylashtirilgan. Asar kompozitsiya jihatidan mukammaldir. Rassom G‘. Abdurahmonov «Baqqol» natyurmortini rangtasvirda ifoda etib, undagi buyumlar shaklini, materialligini, yorug‘ - soyalarni, tekisliklarni aniq ko‘rsatib bera olgan. Asar shunchalar mahorat bilan ishlanganki, tasvirdagi har bir predmetga nazar solinsa, go‘yoki ularni qo‘lingiz bilan ushlab ko‘rishigiz mumkindek bo‘ladi. Chunki, undagi barcha narsalar tasviri bo‘yoqlar yordamida asli kabi tabiiy tasvirlangan. «Baqqol» natyurmorti zo‘r mahorat bilan tasvirlangan asar deb hisoblanadi. Asarni tahlil qilar ekanmiz ayniqsa mis ko‘zaning orqa tomonida xiyol ko‘rinmas qilib tasvirlangan piyola kishi diqqatini tortadi. Tashqi tamoni qizil rangda ifodalangan bu piyola, atayin natyurmortni qiziqarli chiqishi uchun ham bir oz ko‘rinmas qilib joylashtirilganmi? degan savol tabiiy tug‘iladi. Yoki piyolani to‘liq ko‘rinadigan qilib tasvirlasa qanday bo‘lar edi degan fikrlar beixtiyor yodga keladi. O‘z - o‘zidan ko‘rinib turibdiki «Baqqol natyurmorti kishini fikrlashga, o‘ylashga, shuningdek, tomosha qilishga chorlaydi.

O‘zbekiston hududidagi rangtasvir san‘at namunalari, yurtimiz ahlining ajdodlari, juda ko‘hna va boy madaniyat va san‘at sohibi ekanligidan, ularning yuksak badiiy saviyada asarlar yaratganligidan darak berib turibdi. Maromiga yetkazib ishlangan rangtasvir asarlari kishi ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta‘sir etishini so‘z bilan ifoda etish qiyin. Albatta har – bir tasviriy san‘at asarini ko‘z bilan ko‘rib, qalb bilan sezish, his etish kerak. Ajdodlarimizning qalb qo‘ri, mehrining tafti bilan yaratilgan san‘at asarlari, bugungi kunda kishilarda tevarak atrofga ijobiy munosabatini o‘stirib vatanga bo‘lgan muhabbatni oshiradi. Hamda qadimiy milliy urf odatlariga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otib, ularni qadrlashga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov R. Tasviriy san‘at asoslari. T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa – ijodiy uyi. 2009 y., b 64.
2. Oydinov N. Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari. T.: “O‘qituvchi”-“Ziyonoshir”, 1997 y., b 81.
3. Bo‘latov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati. T.: “Mehnat”, 1991y., b 143.
4. Naim Norqulov, Ilyos Nizomiddinov. Miniatyura tarixidan lovhalar. T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashryoti. 1970 y., b 57.

5. Sh. B. Oydinov. Tasviriy san’at tarixi. “Samarqan davlat chet tillar instituti” nashriyoti. 2026-yil 179-180 betlar,

6. N. Abdullayev. O‘zbekiston san’ati tarixi. “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2007.

7. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи”, нашриёти, 1997.

8. Sh. Oydinov. Tasviriy san’at tarixi, Samarqand “SamDU Tahririy nashriyot bo‘limi bosmaxonasi”, 2023.

9. I. U. Izbosarov. Haykaltaroshlik. Samarqand “SamDU” nashriyoti, 2021.